

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadorining 1 - sonli qarori

2025-yil 21 - yanvar

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoni bilan tashkil etilgan “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) Yagona aksiyadori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala ko‘rib chiqildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoni ijrosini ta‘minlash jarayonida “O‘zenergosotish” AJ tomonidan tuziladigan bitimlarni ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligining (Yagona ta‘sischi) 2023-yil 24-noyabrdagi 1-son qarori bilan “O‘zenergosotish” AJ tashkil etilgan va Jamiyat Ustavi 2023-yil 1-dekabrda tegishli davlat idoralarida ro‘yxatdan o‘tgan.

Mazkur Farmonning 3- va 7-bandlariga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning elektr energiyasi eksporti va importi shartnomalari, xususiyy elektr stansiyalari bilan imzolangan elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risidagi bitimlari bo‘yicha majburiyatlari “O‘zenergosotish” AJga to‘liq o‘tkazilishi belgilangan.

O‘z navbatida, davlat-xususiyy sheriklik (DXSh) asosida elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi stansiyalar bo‘yicha loyihalarning bir qator investorlari (kreditorlari) tarafidan “O‘zbekiston MET” AJdan “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilayotgan shartnomalar yirik bitim tasnifiga tushayotganligi sababli, ushbu bitimlarni tuzilishiga “O‘zenergosotish” AJ Yagona aksiyadorining roziligi so‘ralmoqda.

Shuningdek DXSh loyihalari asosida elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan elektr energiyasini kafolatlangan tarzda xarid qilishning ta‘minoti sifatida O‘zbekiston Respublikasining bir qator banklari tomonidan bank kafolati (akkreditivlar) taqdim etilgan bo‘lib, xozirgi kunda ushbu akkreditivlarni “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazilishi va yangi loyihalar bo‘yicha akkreditivlarni ochish uchun banklar tarafidan ham “O‘zenergosotish” AJning ta‘sichisi (aksiyadori) roziligi so‘ralmoqda.

Shu bilan birga, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi 5-son majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoniga muvofiq “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJdan “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilayotgan elektr energiyasi eksporti va importi shartnomalarini hamda xususiyy elektr stansiyalari bilan imzolangan elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risidagi bitimlarni va ushbu bitimlar bo‘yicha taqdim etilgan bank kafolatlari (akkreditivlarni) yuzasidan shartnomalar tuzishga rozilik berish masalasini Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoniga muvofiq “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish va sotish funksiyasi bo‘yicha hamda elektr energiyasi eksporti va importi shartnomalari, xususiy elektr stansiyalari bilan imzolangan elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risidagi bitimlar (shu jumladan elektr energiyasini yetkazib berish, mustakil injiniring kompaniyalari va boshqa maslaxatchilar bilan hamda moliyalashtiruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan bitimlar bo‘yicha kelishuvlar, qisman xatarlarni kafolatlash (PRG) bilan bogliq bitimlar va hujjatlar) bo‘yicha majburiyatlarni to‘liq “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirishga hamda xususiy elektr stansiyalaridan elektr energiyasini xarid qilish bo‘yicha taqdim etilgan (taqdim etiladigan) bank kafolatlari (akkreditivlar) yuzasidan tegishli shartnomalarni o‘rnatilgan tartibda tuzilishiga rozilik berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari



X.Mustafayev